

**Maxmatqobil Obilqosimov Jizzax politexnika instituti,
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi**
**YANGI O‘ZBEKISTON –BUTUN XALQIMIZNING QALBIDAN
CHUQUR JOY OLGAN EZGU G‘OYADIR**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonni barpo etish umummilliy harakatga aylanib borayotgan ezgu g‘oya ekanligi to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Millat Sardori, Uchinchi Renessans, Birinchi va Ikkinchi Uyg‘onish davrlari, bunyodkorlik, yaratuvchanlik.

**A NEW UZBEKISTAN IS A NOBLE IDEA THAT IS DEEPLY IN
THE HEARTS OF OUR ENTIRE PEOPLE**

**Makhmatkobil Obilkosimov Jizzakh Polytechnic Institute,
Senior Lecturer, Department of “Social Sciences”**

Abstract: This article discusses the idea that the creation of a New Uzbekistan is a noble idea that is becoming a nationwide movement.

Keywords: New Uzbekistan, Leader of the Nation, Third Renaissance, First and Second Renaissance periods, creativity, inventiveness.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yaqinda “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharririga bergan intervyusida “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” tushunchalari keng va faol qo‘llandi. Eng muhimi, har ikki tushunchaning aksariyat o‘rinlarda yonma-on, uyg‘un va hamohang kelganini kuzatish mumkin.

Bu haqda so‘z borganda, avvalambor, xalqaro tajribada jahon siyosiy atamashunosligini yangi tushunchalar bilan boyitadigan davlat va jamoat arboblari kam topilishini ta’kidlash lozim. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” tushunchasini dunyo siyosati lug‘atiga kiritgani beqiyos ilmiy ahamiyatga ega.

Yangi O‘zbekiston – bu ibora Millat Sardori ilgari surgan va bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan ezgu g‘oyadir. Bu g‘oya zamirida:

bir tomondan, bugungi va ertangi avlodlarimizning “Uchinchi Renessans” poydevorini qo‘yishdek ezgu maqsad-muddaolari;

ikkinchi tomondan, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi Uyg‘onish davrlariga asos solgan ulug‘ ajdodlarimiz, alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari;

uchinchi tomondan, bunyodkorlik, yaratuvchanlik, har doim o‘qish va izlanishga da‘vat o‘z mujassamini topgan.

Yangi O‘zbekiston me‘mori va tashabbuskori hisoblanuvchi Prezidentimiz qayd etganidek, “Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruratdir”.

Avvalo, Yurtboshimiz ta‘biri bilan aytganda, “yangi” degan so‘zning biz uchun alohida ahamiyati bor. Shu ma‘noda, bundan besh yil oldin qabul qilingan Harakatlar strategiyasida o‘z oldimizga Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk vazifalarni strategik maqsad qilib qo‘yganimiz bejiz emas. Prezidentimizning intervyusida biz intilayotgan ana shu ezgu g‘oyani ro‘yobga chiqarish yo‘lida hayotimizning turli sohalarida qo‘lga kiritilgan yuksak natijalar va bu borada oldimizda turgan mas‘uliyatli vazifalar haqida so‘z borgan. O‘z navbatida, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya‘ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilandi. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, “Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz”.

“Renessans” so‘zi – fransuzcha “Renaissance”, italyancha – “Rinascimento” – qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug‘ilmoq, qayta tirilish, uyg‘onish – degan ma’nolarni anglatadi. “Uyg‘onish” istilohi ilk bor XVI asrda me’mor, musavvir va san’at tarixchisi Jorj Vazari (1511-1574) tomonidan G‘arbiy Yevropada burjua munosabatlari rivojlanishining dastlabki bosqichi bilan shartlangan tarixiy davrni tavsiflash uchun qo‘llanilgan. Ushbu istilohning hozirgi ma’nosi farang tarixchisi Jul Mishle (1798-1874) tomonidan XIX asrda joriy qilindi.

Tarix faniga “Musulmon Renessansi” tushunchasi taniqli Avstriya sharqshunosi Adam Mes (1876-1946) tomonidan XX asr boshlarida, yanada aniqrog‘i, 1909-yilda kiritilgan. Olim “Sharq” atamasini tarixiy mazmunda ishlatib, bunda O‘rta yer dengizidan to Yevropa qit‘asigacha bo‘lgan yurtlarni va bu hududlarda IX-XII asrlarda madaniyat yuksaklarga ko‘tarilganligini ko‘zda tutgan. Mazkur o‘lkalar qadimiy sivilizatsiya beshigidir. Sobiq sovet davrida tarix va o‘quv adabiyotlarida faqat G‘arb Uyg‘onish davri haqida gap borardi. Sharqdagi Uyg‘onish jarayoni haqida lom-lim deyilmacdi. Chunki tarix fanida yevropotsentrizm g‘oyasi hukmron, “G‘arb – ilg‘or, Sharq – qoloq” aqidasi ustuvor edi. Vaholanki, ulug‘ ajdodlarimiz tarixda bir emas, ikkita Ma’rifiy Renessansga asos solganlar. Sharq Uyg‘onish davri – IX-XII asrlarda mintaqamizda yuz bergan "Ma’rifiy Renessans" hisoblanadi.

Ma’rifiy Uyg‘onish davrida buyuk allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlar yetishib chiqqan. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg‘oniy, Umar Hayyom, falsafa sohasida Abu Nasr Forobiy, Ibn Rushd, Muhammad G‘azzoliy, Aziziddin Nasafiy, tibbiyot sohasida Abu Ali ibn Sino, tilshunoslikda Mahmud Zamaxshariy, she’riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy barakali ijod qilganlar. Ularning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga mislsiz hissa qo‘shgan.

Tarixiy manbalarda “islom madaniyatining oltin asri” deb e’tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu’in Nasafiy kabi ulug‘ mutafakkirlar butun musulmon olamiga dong taratgan. Ikkinchi Sharq Uyg‘onish davri – XIV-XVI asrlardagi "Temuriylar Renessansi"dir. Bunda Amir Temur bunyod etgan ulug‘ saltanatning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Sohibqiron bobomiz ilm-fan va madaniyat ravnaqiga keng imkoniyatlar yaratgan, din peshvolari, olimlar, san’atshunoslar, yozuvchilar, shoirlarga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatgan. Bu ma’naviy-ma’rifiy siyosat natijasida Sharq Uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichiga asos solingan.

Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me’morlarning shuhrati dunyoga yoyilgan.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma’rifatparvar jadidlar amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qilganlar hamda “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas” degan hadisi sharifni hayotiy e’tiqod deb bilganlar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma’rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisoblaganlar.

Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug‘ insonlar Milliy uyg‘onish va Millatparvarlik harakatining

oldingi saflarida turgan. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etganlar.

Bugungi kunda biz uchinchi Uyg'onish davri ostonasida turibmiz. Agar O'zbekiston Prezidentining keyingi besh yilda hayotimizning birgina yo'nalishi, ya'ni ma'rifat, ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish yo'lida imzolagan qonun, farmon va qarorlari, tasdiqlagan Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-angi tashabbuslarining mag'zini to'la chaqib ko'rsak ham, navbatdagi Ma'rifat Renessansining markazi Yangi O'zbekiston ekaniga hech kimda shubha qolmaydi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'shurgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas". Albatta, Birinchi va Ikkinchi Renessans kabi Uchinchi Renessans ham uzoq davom etadigan jarayon. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayoni besh-o'n yil emas, ancha katta va mashaqqatli davrni talab qiladi. Buning uchun, avvalo, minglab iste'dodli kadrlar, iqtidorli zamonaviy yoshlar, fidoyi insonlar nihoyatda zarur. Prezidentimiz rahnamoligida yurtimizda ulug' niyatlar bilan poydevori qo'yilayotgan Yangi Uyg'onish davrining yorqin sahifalarga boy buyuk tarixi yaratilmoqda. Bu olamshumul samaralar kelgusi avlodlarga munosib meros qoldirishga xizmat qilishi shak-shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkayev A. «Yangi O'zbekiston: Mo'ljal – Uchinchi Renessans». - To'liq ilmiy risola, 2021 god.
2. «Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans: ma'no-mohiyati, zarurati va mushtarakligi», Inson Huquqlari portali, 24 avgust 2021
3. «O'zbekiston uchinchi renessans ostonasida. Tarixiy ildizlar va hozirgi zamon», Uzhurriyat portali, 1 dekabr 2020
4. «Uchinchi Renessans — Yangi O'zbekistonning asosi», Legacy portali

5. Erkayev A. «Yangi O‘zbekiston: Mo‘ljal – Uchinchi Renessans” kitobi, 2021
6. Tajibaev, M. A. (2024). The significance of the laws of dialectic in scientific knowledge. Экономика и социум, (4-2 (119)), 508-511.
7. Tajibayev, M. A. (2024). O ‘zini-o ‘zi tashkillashtiruvchi jarayonlarni tadqiq etishning yaxlit metodologiyasi. Экономика и социум, (1 (116)), 549-552.
8. Тожибоев, М. А. Комил инсонни вояга етказишда мафкуравий тарбия омиллари.